

ITALYAN TILIDA ANTONOMIK KORRELATSIYALI MAQOLLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

*Talaba: SamDChTI, Roman - german tillari fakulteti,
Ispan va Italyan filologiyasi kafedrası,
Italyan tili yo‘nalishi 2218 guruh talabasi Sayfullayeva F.
Ilmiy rahbar: Roman - german tillari fakulteti,
Ispan va Italyan filologiyasi kafedrası
katta o‘qituvchisi B.M. Sadikova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Italyan tilidagi antonomik korrelatsiyali maqollar mazmunidagi o‘zaro bog‘liqlik, qarama – qarshilik yoki taqqoslash va maqollar orqali fikrni ifodalash usullari lingvomadaniy tahlil asosida ko‘rib chiqilgan. Maqola ilmiy adabiyotlarni, maqolalarni tahlil qilgan holda ularning natijalarini birlashtirib, lingvistik jihatdan yoritib berishga harakat qilgan.

Kalit so‘zlar: korrelatsiya, maqol, antonomiya, semantik, lingvomadaniy tahlil.

Аннотация: В данной статье на основе лингвокультурологического анализа рассматриваются взаимосвязь, противопоставление и сопоставление смыслов в антонимически коррелированных пословицах итальянского языка, а также способы выражения мысли посредством пословиц. В работе, опираясь на анализ научной литературы и пословичного материала, предпринята попытка обобщить полученные результаты и представить их с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: корреляция, пословица, антонимия, семантика, лингвокультурологический анализ.

Annotation: This article examines the interrelation, opposition, and comparison of meanings in antonymically correlated proverbs of the Italian language based on a linguocultural analysis, as well as the ways of expressing ideas through proverbs. By analyzing scholarly literature and proverbial material, the article attempts to integrate the findings and present them from a linguistic perspective.

Keywords: correlation, proverbs, antonymy, semantics, linguocultural analysis.

Maqollar jamiyatning ma’naviy, axloqiy va madaniy hayotida ahamiyatli o‘rin tutadi. Ular xalqning asrlar davomida to‘plangan tajribasi, dunyoqarashi va hayot haqidagi xulosalarini o‘zida mujassam etadi. Aksariyat maqollarda qarama - qarshi tushunchalar mavjud bo‘lib, antonimik korrelatsiyali maqollar qarama - qarshi g‘oyalar, qadriyatlar va hatti – harakatlarni bir iborada sodda va oson ifodalab keladi.[3.-b.15-27] Bugungi kunda til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganish tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga maqolada italyan tilidagi antonimik korrelatsiyali maqollar lingvomadaniy jihatdan

tahlil qilingan hamda ularning o‘zbek tilidagi maqollar muqobillari bilan qiyosiy o‘rganilgan.

Ushbu maqolada italyan tilidagi antonimmik korrelatsiyali maqollarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, antonimik korrelatsiyali maqollar tushunchasini yoritish, italyan maqollaridan misollar keltirish, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish, lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish asosiy maqsad va vazifalar sifatida ko‘rib chiqilgan.

Paremiologiya – tildagi gap strukturasi maqol va matallarni o‘rganadi, ularni pragmatik mazmun orqali namoyon etadi. Maqollar uch xil aniq struktur planga ega. Bular lingvistik va mantiqiy struktura plani hamda aniq reallik planidan iborat. Turli xil xalqlarga xos maqollarning entik nuqtai nazaridan kelib chiqib o‘zaro farqlanadi [4,B.40-55]. Mahalliy maqollar esa o‘zlarining real mantiqiy mazmunidan kelib chiqqan holda farq qiladi. Bu sohada maqollarni tahlil qilishga nisbatan kognitiv va lingvomadaniy yondashuv asosiy o‘rin tutadi. Kognitiv lingvistik tahlil milliy tilning ma’lum bir koseptini o‘zida aks ettiradigan so‘z ibora va matnlar ma’nosini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Lingvomadaniy – yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqaga asoslanadi. Uning asosiy maqsadi xalqning zamonaviy va madaniy jihatdan o‘zini anglashini ifodalovchi turli xil matnlarda jonli tarzda qo‘llanilishini namoyish etishga yo‘naltirilgandir. Maqollarni qahlil qilishda ko‘pchilik tilshunoslar kognitiv tilshunoslikning “konsept”, “anglash” va “dunyoqarash” kabi atama va tushunchalarga ko‘proq tayanadi.

Antonimik korrelatsiyali maqollar tushunchasi mazmun jihatdan bir -biriga qarama - qarshi bo‘lgan ammo umumiy semantik maydonga mansub maqollar juftligidir[2, B.12-45]. Bunday maqollar xalq tafakkurida qarama – qarshilik orqali haqiqatni anglash tamoyiliga asoslanadi. L‘antonimia, prevede che i sememi possano trovarsi in relazione oppositiva tra loro: alto/ basso , vivo / morto sono detti contrary o antonimi (dal greco “ anti – contro “ e “onomo – nome) [1. -b.20], yani zid ma’noli so‘zlarni o‘rganadi baland /past , yashamoq /o‘lmoq kabi . Bunday maqollar xalq tafakkurida qarama -qarshilik orqali haqiqatni anglatadi. Quyidagi maqollarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:

L‘amore vince tutto - sevgi barchasini yengadi, buning antonimi sifatida quyidagi maqolni ko‘rsak bo‘ladi: Lontano dagli occhi, lontano dal cuore -ko‘zdan uzoq ko‘ngildan uzoq ,bu maqollar sevgi tushunchasini ikki xil talqinda ifodalaydi, o‘zbek tilidagi Mehr ko‘zda, iborasi taqqoslasak bo‘ladi, chunki qanchalik ko‘p birga bo‘lish insonlarni bir – biriga yaqinlashtiradi va mehri ortadi.

Il denore apre tutte le porte – pul hamma eshikni ochadi bizning o‘zbek tilimizdagi - Pul bo‘lsa changalda sho‘rvo maqoliga mos keladi. Buning antonimik jufti sifatida;

Non è ricco chi ha molto, ma chi desidera poco – Ko‘p narsaga ega bo‘lgan emas, kam bilan qanoatlangan bo‘ldir.

L‘abito non fa il monaco - Libos mo‘minni yaratmaydi , tashqi ko‘rinish muhim emas; bu maqolning antonimi sifatida, Anche l’occhio vuole la sua parte – ko‘z ham o‘z ulushini xohlaydi. O‘zbek tilida bu maqolni quyidagicha tahlil qilsak bo‘ladi, Do‘st boshingga – dushman oyog‘ingga qaraydi. Ushbu maqollarda sevgi -sovuqlik, boylik -qanoat, ichki va tashqi go‘zallik haqidagi antonimik korrelatsiyali ma’nolarni kuzatishimiz mumkin.

Italyan tilidagi antonimik korrelatsiyali maqollar milliy madaniyatda muvozanat tushunchasining o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Masalan, Meglio soli che male accompagnati [5, B.36] / yomon jamoadan ko‘ra yolg‘iz ishlash - individualizmni ifodalasa, Chi va insieme va più lontano / Birgalikda yurilsa uzoqqa borish mumkin - jamoachilikni ulug‘laydi. Bu maqollar orqali qarama qarshi ma’nolarda jamoachilik va individuallik o‘rtasidagi tahlilni, italyan jamiyatida oila do‘stlar va hamkorlik muhim o‘rin tutishi, ijtimoiy birdamlik va o‘zaro yordam qadriyatlarini yoritadi va aks ma’noda shaxsiy mustaqillik ma’nosida, tanbehli ma’nolarda ishlatiladi. Ushbu maqollar ta’lim va jamoaviy faoliyat turmush tarzida yoki kontekstlarda keng qo‘llaniladi. Italyan maqollarida muvozanat, ehtiyotkorlik va hayotiy realizm kuchli namoyon bo‘ladi, italyan tilidagi antonimik korrelatsiyali maqollar xalqning hayotga bo‘lgan ikki tomonlama munosabatini ifodalaydi, antonimik juftliklar italyan tili va madaniyat uyg‘unligini ochib beruvchi muhim paremiologik birliklar hisoblanadi , bu holat italyan xalqining milliy mentalitetini aks ettiradi. Bu maqollarni o‘zbek tilidagi, Birlashgan - o‘zar, birlashmagan - to‘zar yoki Bo‘linganni bo‘ri yer kabi maqollarimiz bilan taqqoslab, italyan madaniyati va o‘zbek madaniyati ijtimoiy munosabatlardagi o‘xshashliklarni ko‘rishimiz mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganib shu xulosaga keldimki, italyan tilidagi antonimik korrelatsiyali maqollar lingvistik, sematik va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, insonlar nutqida katta o‘rin egallagan jamiyat va madaniy tafakkuri va nutqiy merosining ajralmas qismi ekanligini bildim va bu yana ko‘plab tadqiqotlar orqali boyitiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Dardano M., Trifone P. Grammatica italiana con nozioni di linguistica. 3^a ed. Bologna, Zanichelli, 1995. – 824 p.
2. Mieder, Wolfgang. Introduction to Paremiology. Berlin: De Gruyter, 2014. – P. 351.
3. Suvonova N.N., Sadikova B.M. Lexical and Semantic Analysis of Antonymic Correlated Italian Proverbs on Friendship and Love. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, March 2025.

4. Sadikova B. M. Italyan tilidagi antonimik korrelatsiyali maqollarning leksik – grammatik tahlili. SamDChTI (Samarqand), ZDIT, tom 4(16), 2025. -B. 95–98. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15469387>
5. Toscani M., Viale G. P. Le parte del discorso. – Samarqand: Zarafshon , 2014. - B.152 .